Umarova Navbahor Shokirovna, G'ayratova Malohat O'tkir qizi	
TA'LIM TASHKILOTLARIDA QAROR QABUL QILISH JARAYONIDA BIXEVIORIAL MENEJMENT NAZARIYASINING MOHIYATI.....	660
Umarova Navbahor Shokirovna, Sangirova Nargiza Yuldashevna	

TALABALARDA ALTRUIZM NAMOYON BO‘LISHIGA SHAXS XUSUSIYATLARINING TA‘SIRI

Kamolova Nilufar Davir qizi
mustaqil izlanuvchi, O‘zMPU

Annotatsiya: Ushbu maqola talabalarda altruizmning namoyon bo‘lishi, avvalo, ularning individual shaxsiy xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu jarayon o‘zining murakkab psixologik mexanizmlarini namoyon qiladi. Shaxsning empatiya qobiliyati kuchli bo‘lsa, altruistik faoliyat ko‘proq ijtimoiy moslashuvchanlik va boshqalar ehtiyojini his qilish orqali ifodalanadi, aksincha, past darajadagi empatiya altruizmni zaiflashtiradi va yordam berish xatti-harakatlarini tasodifiy ko‘rinishga keltiradi.

Kalit so‘zlar: tolerantlik, altruistik faoliyat, shaxsiy liderlik sifatleri, o‘ziga baho, altruizm.

Abstract: This article argues that the manifestation of altruism in students is closely related, first of all, to their individual personality characteristics, and this process reveals its complex psychological mechanisms. If a person has a strong ability to empathize, altruistic activity is expressed through greater social adaptability and a sense of the needs of others, while, on the contrary, a low level of empathy weakens altruism and makes helping behavior seem random.

Key words: tolerance, altruistic activity, personal leadership qualities, self-esteem, altruism.

Аннотация: В статье утверждается, что проявление альтруизма у студентов тесно связано, прежде всего, с индивидуальными особенностями личности, и этот процесс раскрывает свои сложные психологические механизмы. Если у человека развита способность к эмпатии, альтруистическая активность проявляется в большей социальной адаптированности и понимании потребностей других, тогда как, напротив, низкий уровень эмпатии ослабляет альтруизм и делает оказываемое им содействие случайным.

Ключевые слова: толерантность, альтруистическая активность, лидерские качества личности, самооценка, альтруизм.

KIRISH

Talabalarda altruizmning namoyon bo‘lishi, avvalo, ularning individual shaxsiy xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu jarayon o‘zining murakkab psixologik mexanizmlarini namoyon qiladi. Shaxsning empatiya qobiliyati kuchli bo‘lsa, altruistik faoliyat ko‘proq ijtimoiy moslashuvchanlik va boshqalar ehtiyojini his qilish orqali ifodalanadi, aksincha, past darajadagi empatiya altruizmni zaiflashtiradi va yordam berish xatti-harakatlarini tasodifiy ko‘rinishga keltiradi. Talabada ijtimoiy mas‘uliyat hissi yuqori bo‘lsa, altruizmning barqaror shakllari kuchayadi va u jamoadagi birdamlikni mustahkamlashga xizmat qiladi, biroq shaxsiy manfaatparastlik yoki individualistik intilishlar kuchli bo‘lsa, altruizm cheklangan darajada qoladi. Shaxsning o‘ziga ishonchi altruistik qarorlarni qabul qilishda muhim omil bo‘lib, yuqori o‘ziga ishonch altruistik faoliyatni dadil va samarali qiladi, past o‘ziga ishonch esa yordamni ikkilanish bilan kechirishga olib keladi. Dinamik jihatdan qaralganda, talabada kommunikativ ochiqlik kuchli bo‘lsa, altruistik munosabatlar o‘zaro muloqot jarayonida tezroq shakllanadi va samaradorligi ortadi, ammo kommunikativ yopiq shaxs altruizmni kamroq namoyon qiladi.

Shuningdek, shaxsning tolerantlik darajasi, boshqalar fikrini hurmat qilish qobiliyati ham altruizmning kuchayishida asosiy determinant sifatida xizmat qiladi, aks holda intolerant shaxs altruistik qarorlarga nisbatan befarq bo‘ladi. Talabaning ijodkorlik va muammoli vaziyatlarni noodatiy yechish qobiliyati altruizmni yangicha shakllarda namoyon qilishga imkon beradi, natijada altruistik faoliyat yanada jozibador va samarali bo‘lib boradi. Stressga chidamlilik va hissiy barqarorlik ham muhim ahamiyat kasb etadi, chunki hissiy jihatdan muvozanatli shaxs altruistik qarorlarni bosim ostida ham ongli ravishda qabul qila oladi. Shaxsning refleksivlik darajasi altruizmni ongli darajada mustahkamlaydi, chunki o‘z harakatlarini tahlil qilishga moyil bo‘lgan shaxs yordam berishni nafaqat hissiy, balki ratsional qaror sifatida ham baholaydi. Shu bilan birga, shaxsiy qadriyat tizimi altruizmni barqarorlashtiruvchi asosiy mezonlardan biri bo‘lib, inson hayot falsafasi yordamni qadriyat sifatida qabul qilsa, altruizm doimiy ravishda namoyon bo‘ladi.

Talabalarda altruizmning shakllanishida shaxs xususiyatlari ichida motivatsion yo'nalishlarning ham o'zni katta bo'lib, ayniqsa professional motivatsiya kuchli bo'lgan talabalar yordam berishni o'z kelajak kasbiy faoliyatining ajralmas qismi sifatida qabul qiladilar. Shaxsning reflektiv xususiyatlari rivojlangan bo'lsa, altruistik faoliyat ham chuqur tahlil qilingan qaror sifatida namoyon bo'ladi, chunki bunday talaba o'z xatti-harakatlarining oqibatini oldindan baholashga intiladi. O'zini o'zi nazorat qilish qobiliyati yuqori bo'lgan shaxs altruistik xatti-harakatni impulsiv emas, balki ongli va muvofiqlashtirilgan shaklda amalga oshiradi, bu esa altruizmni barqaror qadriyat sifatida mustahkamlaydi. Shaxsning irodaviy barqarorligi altruizmning izchil namoyon bo'lishiga yordam beradi, chunki kuchli iroda altruistik qarorlarda qat'iyatni ta'minlaydi.

Talabaning hissiy sezgirligi altruizmni yanada nozik shakllarda ifodalash imkonini beradi, masalan, u yordamni nafaqat amaliy ko'mak ko'rsatishda, balki ruhiy qo'llab-quvvatlash orqali ham namoyon qiladi. Shaxsiy mas'uliyat darajasi yuqori bo'lgan talaba altruistik faoliyatni axloqiy burch sifatida qabul qiladi, bu esa yordam berishni odatiy norma sifatida shakllantiradi. Shaxsning ochiqdigi va tashabbuskorligi altruizmni faol, tashqi ko'rinishda jozibador qilishga yordam beradi, natijada altruistik xatti-harakatlar guruhda tezroq tarqaladi. Shaxsiy tashvish darajasi past bo'lgan talabalar altruizmni bema'lol namoyon qilishlari mumkin, chunki ular ijtimoiy bahodan qo'rqmaydilar, aksincha tashvishli shaxslar yordam ko'rsatishda ikkilanishlari mumkin. Shaxsning tolerantligi altruizmni kengroq ijtimoiy qamrov bilan uyg'unlashtiradi, ya'ni tolerant shaxs boshqacha fikr va dunyoqarashlarga ega insonlarga ham yordam ko'rsatishga moyil bo'ladi. O'zini o'zi baholash darajasi barqaror bo'lgan talabalar altruistik faoliyatni shaxsiy qadriyat sifatida idrok etadilar, past o'zini baholash esa altruizmni zaiflashtiradi. Shaxsning tashabbuskorligi altruizmni innovatsion va ijodiy shakllarda ifodalash imkonini beradi, bu esa yordamni nafaqat samarali, balki qiziqarli qiladi. Shaxsiy ehtiyotkorlik altruizmni haddan tashqari hissiy emas, balki oqilona tarzda boshqariladigan qiladi, natijada yordam ko'proq manzillilik kasb etadi. Shaxsning ijtimoiy sezgirligi kuchli bo'lsa, altruistik faoliyat ijtimoiy birdamlikni mustahkamlovchi asosiy mexanizm sifatida shakllanadi.

Psixologik moslashuvchanlik altruizmni turli vaziyatlarda samarali namoyon qilish imkonini beradi, chunki moslashuvchan talaba vaziyat talabiga qarab yordam ko'rsatish usullarini o'zgartira oladi. Shaxsning ma'naviy qadriyatlari altruizmni mustahkamlaydi, chunki ma'naviyatli inson yordamni hayot falsafasining zaruriy qismi sifatida ko'radi. Shaxsiy liderlik sifatleri altruizmni boshqalarga namuna sifatida ko'rsatadi, bu esa guruh a'zolarining ham altruistik faoliyatini kuchaytiradi. Shaxsning empatik sezgirligi altruizmni ko'proq samimiy va qadrli qiladi, chunki empatiyaga asoslangan yordam chin qalbdan keladi. Natijada talabalarda altruizmning namoyon bo'lishi shaxsiy sifatlar majmuasi bilan belgilangan murakkab psixologik jarayon sifatida qaraladi va bu jarayon ularning ijtimoiy, kasbiy hamda shaxsiy rivojlanish darajasi bilan uzviy bog'liq bo'lib shakllanadi.

Endi, talabalarning o'ziga beradigan bahosini altruizm namoyon bo'lishiga ta'siriga diqqatimizni qaratamiz.

2.8-jadval. Talabalarning o'ziga beradigan bahosini altruizm namoyon bo'lishiga ta'siri (n=598)

Mezonlar	Altruizm
O'ziga baho	0,124**

Izoh: **p ≤ 0,01, *p ≤ 0,05

Korrelyatsion bog'lanishlarga ko'ra, talabalarning altruistik xatti-harakatlarga moyilligi ularning o'z shaxsiga beradigan bahosi bilan bevosita bog'liq bo'lib, bu bog'liqlikning statistik ko'rsatkichlari ($r_s=0,124$; $p \leq 0,01$) ijobiy va ishonchli ekanini ko'rsatadi. O'zini yuqori baholaydigan talaba boshqalarga yordam berishni o'zining ijtimoiy mas'uliyati va shaxsiy qadriyati sifatida qabul qiladi. «O'ziga baho» omili o'z navbatida talabaning ichki resurslarga bo'lgan ishonchi, o'zini qadrlash darajasi va ijtimoiy rolini anglash darajasi bilan bog'liqdir. Bunday talabalar altruistik faoliyatga ko'proq o'z irodasi bilan kirishadi, ular uchun yordam ko'rsatish – bu nafaqat axloqiy burch, balki shaxsiy mazmunli ehtiyojga ham aylanadi. «Altruizm» omili esa boshqalarning manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'yish, ijtimoiy empatiya va ijtimoiy mas'uliyat bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu o'z-o'zini qadrlovchi shaxslarda kuchliroq ifodalanadi. Psixologik nuqtai nazardan qaralganda, altruizmni kuchli ifodalovchi talabalar o'zlariga nisbatan yuqori ijtimoiy va hissiy bahoga ega bo'ladilar. Shuning uchun, talabaning altruistik xatti-harakatlari u o'zini jamiyatda qanday tutishini qanday qabul qilishi bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. O'ziga nisbatan yuqori baho bergan talaba boshqalar ehtiyojini tezroq sezadi, ularga yordam berishni o'zining ijtimoiy roli sifatida qabul qiladi. Bunday shaxslar ko'pincha jamoaviy faoliyatlarda faol qatnashadi, ularda “men foydaman” degan ijtimoiy o'zlik mavjud bo'ladi. Aksincha, o'zini past baholovchi talabalar ko'proq o'ziga yopiq, ehtiyotkor va altruistik harakatlarga nisbatan passiv munosabatda bo'ladi. Ular o'z yordami foydasiz deb hisoblab, altruistik vaziyatlarda o'zini chetga oladi. Bu holat shuni ko'rsatadiki, “o'ziga baho” darajasi altruizmning rivojlanishida asosiy ichki motivatsion resurs hisoblanadi. Ijtimoiy-psixologik xizmatlarda shaxsiy baholash omilini rivojlantirish orqali altruistik munosabatni shakllantirish imkoniyati kuchayadi. Talabaning o'ziga bergan bahosi uning jamiyatdagi ijtimoiy o'rnini, shaxslararo muloqot darajasini va o'ziga bo'lgan ishonchini

belgilovchi mezonlardan biridir. Shuning uchun, “o‘ziga baho”ni ijobiy yo‘nalishda rivojlantirish, altruizmga tayyorlikni oshirishning muhim psixologik shartidir. Statistika jihatdan o‘z-o‘zini baholashning altruizmga ijobiy ta’siri mavjud bo‘lishi, ijtimoiy o‘zlikni anglash va ijtimoiy faollik darajasining oshganidan dalolat beradi. Bu holat shuni ko‘rsatadiki, altruizmga tayyorlikni rivojlantirish uchun o‘z-o‘zini qadrlashni kuchaytirish zaruriy pedagogik-psixologik strategiyadir. Talabalik davrida shaxsiy o‘sish, kasbiy identitet va ijtimoiy motivatsiyalar kuchaygani sari altruizmning real shakllanishi ta’minlanadi.

Shuningdek, o‘zini ijobiy baholaydigan talabalarda altruistik xatti-harakatlar barqarorroq namoyon bo‘lishi, ularning ichki resurslariga bo‘lgan ishonch, o‘zining jamiyatdagi o‘rnini anglash va ijtimoiy qadriyatlarini ongli ravishda qabul qilishi bilan bog‘liq. Bunday talabalarda altruizm – bu nafaqat boshqalarga yordam berish, balki o‘z shaxsiy yetukligini, empatik sezuvchanligini va jamiyatga daxldorlik hissini amalda ko‘rsatish vositasidir. O‘z-o‘ziga nisbatan yuqori bahoga ega bo‘lganlar ko‘proq tashabbuskor, ochiq va ijtimoiy jihatdan faol bo‘lib, altruistik harakatlarni o‘zlarining ijtimoiy roli sifatida qabul qilishadi. Aksincha, o‘zini past baholaydigan shaxslar altruizmga ehtiyotkor yondashadi, yordam berishga kamroq intilishadi yoki o‘z hissasini foydasiz deb hisoblab chetga tortilishadi. Ushbu korrelyatsion bog‘liqlik altruizmning psixologik bazasida “o‘ziga baho” omilining qanday chuqur motivatsion manba sifatida xizmat qilishini ko‘rsatadi. Talabani o‘z-o‘ziga nisbatan shakllangan ijtimoiy, emotsional va kognitiv bahosi, uning altruistik faollik darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, ta’lim jarayonida talabalar o‘rtasida sog‘lom “o‘zini baholash” tizimini shakllantirish, ijtimoiy qadriyatlarini anglash va o‘zini jamiyatga foydali shaxs sifatida ko‘rishga yo‘naltirish orqali altruizmni ongli, barqaror va chuqur shaxsiy xususiyatga aylantirish mumkin. Psixopedagogik yondashuvlar orqali o‘z-o‘zini qadrlash, ijtimoiy javobgarlik, empatik sezuvchanlik va yordam ko‘rsatishga tayyorlik kabi jihatlari uyg‘unlashtirilgan holda rivojlantirilsa, talabalarda altruistik xatti-harakatlar faqat vaziyatga bog‘liq reaksiya emas, balki ichki axloqiy qadriyat sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida ijtimoiy ongning shakllanishi, psixologik barqarorlik va shaxsiy yetuklikning muhim ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib, ijtimoiy-psixologik rivojlanishning asosiy tayanch nuqtasiga aylanadi. Shu boisdan, “o‘ziga baho” va “altruizm” o‘rtasidagi bog‘liqlikni nazarda tutgan holda, ta’lim tizimida ijtimoiy-psixologik kompetensiyalarni mustahkamlash, individual yondashuv asosida psixoprofilaktik va psixokorreksion choralarini joriy etish zarur. Natijada, altruizm nafaqat talabalar orasida ko‘mak, yordam va hamkorlik muhitini kuchaytiradi, balki ularning shaxsiy va professional taraqqiyotida muhim axloqiy ustunga aylanadi.

Shuningdek, talabalarda altruizm namoyon bo‘lishining shaxs differensial xususiyatlariga bog‘liqligini keltiramiz.

2.9-jadval. Talabalarda altruizm namoyon bo‘lishining shaxs differensial xususiyatlariga bog‘liqligi (n=598)

Mezonlar	Altruizm
Kommunikativ xususiyatlar	0,139**
Intellektual xususiyatlar	0,194**
Irodaviy xususiyatlar	0,002
Emotsional xususiyatlar	0,240**

Izoh: **p ≤ 0,01, *p ≤ 0,05

Talabani «kommunikativ xususiyatlari» darajasi uning «altruizm» omili bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bu bog‘lanishning statistik jihatdan ishonchli ekani ($r_s=0,139$; $p \leq 0,01$) orqali tasdiqlangan. Altruistik faoliyat ko‘pincha shaxslararo muloqot, o‘z fikrini erkin ifoda etish, empatik tinglash va samimiy aloqa kabi kommunikativ jihatlarning faolligi bilan uyg‘unlashadi. Yuqori kommunikativ salohiyatga ega bo‘lgan talaba odatda boshqalarning holatini tushunishga, ular bilan hissiy aloqaga kirishga va zarurat tug‘ilganda yordam qo‘lini cho‘zishga moyil bo‘ladi. «Altruizm» talabani shaxsiy manfaatlarini emas, balki guruh manfaatlarini ustun qo‘yish qobiliyatini ifodalasa, «kommunikativ xususiyatlar» uning bu niyatlarini so‘z, tana tili va muloqot vositalari orqali ifodalash imkonini beradi. Har ikki omil talabani ijtimoiy faoliyatdagi muvaffaqiyatini belgilovchi psixologik vositalardir. Yuqori kommunikativ kompetensiyaga ega shaxslar jamoadagi ziddiyatlarni hal etishda ham altruistik yondashuvni qo‘llashga moyildirlar. Ular muammoga yechim topishda hamkorlikni, fikr almashuvini va hissiy qo‘llab-quvvatlashni ustuvor deb biladilar. Bu bog‘liqlik shuni ko‘rsatadiki, altruistik harakat shunchaki ichki niyat emas, balki ijtimoiy muloqot vositasida yuzaga chiqadigan faoliyatdir. Kommunikatsiya altruistik xatti-harakatning ijtimoiy maydondagi ifodasi bo‘lib xizmat qiladi. Talabalar o‘z fikrini to‘g‘ri va ta’sirchan ifoda eta olgan taqdirda, altruistik munosabatlar barqaror rivojlanadi. Shu sababli, psixopedagogik muhitda talabalar orasida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish altruizmni oshirishga xizmat qiladi. Muloqotga tayyorlik, boshqalarni tinglay olish, emotsional so‘zlashuv va vaziyatga mos til ishlatish altruizmning tabiiy ifodasi sifatida qaraladi. Shuningdek, o‘zini jamiyatda kerakli deb his qilgan talaba kommunikatsiya orqali bu hisni boshqalarga

yetkazish va yordam ko'rsatish orqali tasdiqlashga harakat qiladi. Altruizm muloqot orqali nafaqat tashqi harakat, balki ichki empatik qadriyat sifatida barqarorlashadi. Bu esa kommunikativ qobiliyatlarning ijtimoiy ong va hissiy sezgirlik bilan uyg'unlashgan holatini aks ettiradi. Xulosa qilganda, «altruizm» va «kommunikativ xususiyatlar» o'rtasidagi ijobiy bog'liqlik talabalarning muloqotga bo'lgan qobiliyati ularning ijtimoiy yordamga tayyorligini kuchaytirishini ko'rsatadi.

Talabalarda «altruizm» omili va «intellektual xususiyatlar» o'rtasidagi bog'liqlik ham statistik jihatdan ishonchli bo'lib ($r_s=0,194$; $p \leq 0,01$), bu ikki omil o'zaro murakkab ichki mexanizmlar orqali bir-birini to'ldirishini ko'rsatadi. «Intellektual xususiyatlar» – bu shaxsning muammoni tahlil qilish, tushunish, strategik fikrlash va ijtimoiy hodisalarga nisbatan anglovchan yondashuv ko'rsatkichlaridir. Intellektual darajasi yuqori bo'lgan talaba, altruistik holatlarga oddiy empatik reaksiya sifatida emas, balki ongli, tahliliy yondashuv asosida qaraydi. Ular yordamga muhtoj shaxsga nisbatan tezroq xulosa chiqaradi, ehtiyojni anglaydi va muvofiq yechim topishga harakat qiladi. «Altruizm» esa bu intellektual tahlilni amaliy harakatga aylantirishga xizmat qiluvchi axloqiy pozitsiyani bildiradi. Ushbu bog'liqlik shuni ko'rsatadiki, altruistik xatti-harakatlar nafaqat hissiy javob, balki intellektual ong jarayoni natijasi ham bo'lishi mumkin. Yuqori intellektga ega shaxs ijtimoiy vaziyatlarni chuqur tushunib, altruistik strategiyalarni ongli tanlaydi. Bu bog'liqlik ijtimoiy mas'uliyat hissining shakllanishida kognitiv komponentlarning qanday rol o'ynashini tasdiqlaydi. Ayni paytda, bu omil shuni ham anglatadiki, intellektual salohiyat altruistik harakatni resursga aylantirish imkonini beradi. Intellektual rivojlangan talaba boshqalarning ehtiyojlarini tahlil qilishda, ularni ustuvorlik darajasi bo'yicha tartibga solishda va o'z harakatlarini ratsional rejalashtirishda muvaffaqiyatliroq bo'ladi. Ular uchun altruizm impulsiv emas, balki strategik ijtimoiy qaror hisoblanadi. Bu bog'liqlikni ta'lim tizimida intellektual rivoj bilan ijtimoiy qadriyatlar tarbiyasini integratsiyalash orqali mustahkamlash mumkin. Altruistik qadriyatlar, intellektual refleksiya orqali chuqur asoslangan harakatlarga aylanadi. Shu sababli, psixopedagogik intervensiyalarda faqat hissiy emas, balki intellektual omillarga ham tayanish altruizmni shakllantirishda samarali bo'ladi. Xulosa shuki, «intellektual xususiyatlar» altruistik xatti-harakatlarning ongli, strategik va maqsadga yo'naltirilgan bo'lishini ta'minlovchi psixologik omildir.

«Altruizm» va «emotsional xususiyatlar» o'rtasidagi bog'liqlikning eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lishi ($r_s=0,240$; $p \leq 0,01$), bu ikki psixologik omilning o'zaro chuqur integratsiyalashganligini isbotlaydi. Emotsional jihatdan barqaror, sezgir, boshqalarning holatiga javob qaytara oladigan talabalarda altruizm yanada faol va barqaror tarzda namoyon bo'ladi. «Emotsional xususiyatlar» altruistik harakatning hissiy ildizlarini tashkil etadi – ya'ni insonning boshqalar holatiga nisbatan rahmdilligi, qayg'uga javob berish darajasi va ichki hissiy faolligi. Bunday talabalar o'z hissiyotlarini boshqalarnikiga uyg'unlashtira olishadi va empatiya orqali altruistik harakatlarga turtki topishadi. Emotsional sezuvchanlik altruizmni chin yurakdan, samimiy va shaxsiy ehtiyoj asosida yuzaga chiqishiga sabab bo'ladi. Bu esa altruistik xatti-harakatlarning ichki motivatsiyaga tayanishini ko'rsatadi. Boshqalarning holatiga befarq bo'lmagan shaxs altruistik harakatni nafaqat foydali deb, balki ahloqiy zarurat sifatida ham qabul qiladi. Bu bog'lanish orqali altruizmning birinchi psixologik manbai aynan emotsional reaksiya ekanligi isbotlanadi. Emotsional jihatdan kuchli shaxslar jamiyatdagi ijtimoiy og'riqlarga befarq bo'lmaydi, ular yordam berish orqali o'zining ichki muvozanatini saqlaydi. Bu holat shuni anglatadiki, altruizm ko'pincha ijtimoiy empatiya va hissiy ongdan tug'ilgan reaksiya sifatida shakllanadi. Psixologik xizmatlar bu jihatni inobatga olib, hissiy barqarorlikni oshirish orqali altruistik harakatlarga yo'naltiruvchi mexanizmlarni kuchaytirishi mumkin. Aynan «emotsional xususiyatlar» altruizmni doimiy, ichki ehtiyojga asoslangan va tashqi omillarga bog'liq bo'lmagan fazilatga aylantiradi. Talabalarning hissiy o'zini anglash darajasi oshgani sari altruistik holatlarda javob berish ehtimoli ortadi. Bunday bog'lanishlarni rivojlantirish uchun emotsional intellekt, empatik tinglash, his-hayajonni boshqarish va ijtimoiy sezuvchanlikka yo'naltirilgan mashg'ulotlar samarali hisoblanadi. Shu asosda xulosa qilish mumkinki, «emotsional xususiyatlar» altruizmning eng chuqur va barqaror manbaidir, bu esa shaxsning ijtimoiy va axloqiy yetuklik darajasini belgilovchi asosiy mezon sifatida qaraladi.

Tadqiqot natijalari asosida shuni umumiy tarzda ta'kidlash mumkinki, talabalarda «altruizm» omilining shakllanishi ularning bir qator shaxsiy psixologik xususiyatlari bilan bevosita bog'liq bo'lib, ayniqsa «kommunikativ xususiyatlar» «intellektual xususiyatlar» va «emotsional xususiyatlar» bilan mustahkam ijobiy korrelyatsiyalar aniqlangan.

Bu holat, altruistik xulq faqatgina axloqiy yoki tasodifiy harakat emas, balki murakkab individual-psixologik tizim bilan uyg'unlashgan barqaror shaxsiy sifat ekanligini isbotlaydi. «Kommunikativ xususiyatlar» talabalarning altruistik faoliyatga kirishishida asosiy ijtimoiy vosita bo'lib xizmat qiladi, chunki altruizmning real ifodasi ijtimoiy muloqot orqali yuzaga chiqadi. Muloqotda ochiqlik, fikr almashish, empatik eshitish va samimiy ifoda altruistik xatti-harakatlar uchun zaruriy psixologik zaminni yaratadi. «Intellektual xususiyatlar» esa altruistik harakatlarning ichki mohiyatini, ya'ni ularni qanday anglash, tahlil qilish va rejalashtirish darajasini belgilovchi omildir. Intellektual jihatdan faollik altruistik qarorlarni impulsiv emas, balki ongli va ratsional yondashuv bilan boyitadi. Bu talabaning yordam ko'rsatish harakatlarini tasodifiy javob emas, balki ijtimoiy zarurat sifatida anglab, muammoga faol kirishishini kuchaytiradi. «Emotsional xususiyatlar» esa altruizmning eng chuqur psixologik

manbaiga aylanishi bilan ajralib turadi, chunki empatiya, rahmdillik, hissiy sezuvchanlik va samimiyat altruistik faoliyatning hissiy asosi sifatida namoyon bo‘ladi. Yuqori emotsional sezuvchanlik altruizmni faqat tashqi holatlarga bog‘liq emas, balki shaxsning ichki ehtiyoji sifatida barqarorlashtiradi. Shunday qilib, altruizmning kuchli namoyon bo‘lishi uchun talabning emotsional va kommunikativ jihatdan faol, intellektual jihatdan ongli va tahlilga tayyor bo‘lishi lozim bo‘ladi. Bu o‘zaro bog‘liqliklar asosida shuni aytish mumkinki, altruizmning shakllanishi faqat ijtimoiy talab emas, balki shaxsning ichki psixologik tuzilmasining ko‘p qirrali integratsiyasi hisoblanadi. Psixopedagogik jarayonlarda aynan mana shu uch omilga yo‘naltirilgan rivojlantiruvchi ta’sirlar, talabalarning altruistik sifatlarini shakllantirishda ustuvor ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot bu bog‘lanishlarning mustahkam va statistik jihatdan ishonchli ekanini tasdiqlagan holda, ularning amaliy va nazariy ahamiyatini kengaytiradi. Talabalarda altruizmni rivojlantirish nafaqat ijtimoiy o‘zaro yordam muhitini kuchaytiradi, balki ularning shaxsiy va professional taraqqiyotiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, oliy ta’lim muassasalarida altruizmga yo‘naltirilgan tarbiya jarayonlarini olib borishda, ushbu psixologik omillarni rivojlantiruvchi interaktiv, reflektiv va emotsional metodlardan foydalanish muhim vazifa bo‘lib qoladi. Altruizm – bu ijtimoiy qadriyat sifatida emas, balki talabning shaxsiy barkamolligi yo‘lidagi psixologik ko‘rsatkich sifatida faol shakllanishi kerak. Shu tarzda, o‘zaro bog‘liq psixologik omillar altruizmni chuqur, barqaror va ijtimoiy foydali xulq shakliga aylantirishga xizmat qiladi.

Yuqorida keltirilgan ma’ulmotlar asosida quyidagi xulosalarni shakllantirishimiz mumkin:

1. Talabalarda altruizmni namoyon bo‘lishi shaxsning o‘ziga beradigan bahosi bilan bog‘liqligiga ko‘ra kasbiy “Men”ni altruist “Men” bilan identifikatsiyalanishi aniqlandi;
2. Talabalarning individual psixologik xususiyatlariga ko‘ra ratsional altruizm kommunikativ, intellektual va emotsional sifatlarning differensial ta’sirida kuchli namoyon bo‘lishi kuzatildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni / <http://lex.uz>.
2. Гулевич О.А. Основные стадии моральной социализации // Институт психологии РАН. 2010. С. 52-66.
3. Кухтова Н.В. Адаптация шкалы «Альтруизма» (Ф.Раштона)/ Н.В.Кухтова// 36. навук. прац Акад. паслядыплом. адукацыі. – 2011. – С. 148–159.
4. Абдуллаева, Д. У. (2018). ДЕТСКО-РОДИТЕЛЬСКИЕ ОТНОШЕНИЯ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ КРЕАТИВНОСТИ ДЕТЕЙ. In Развитие интеллектуально-творческого потенциала молодежи: из прошлого в современность (pp. 335-336).
5. Абдуллаева, Д. У. (2016). СУЩНОСТИ И ЗАКОНОМЕРНОСТИ ПРОЦЕССА СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПЕДАГОГА. Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук, (5-6), 64-66.
6. RR Ashurov Karakter aksentuatsiyasi tushunchasining ijtimoiy-psixologik tahlili Science and Education, 2022 3 Science and Education 663-674.
7. AR Ramazonovich Development Of Cognitive Processes In Students as An Important Factor of Intellect Formation - Jurnal Psikologi, 2025 2, 1-6
8. <https://www.apa.org/about>.

